

## MUXAMMASLARDA BADIY SAN'ATLAR

Dilmurod Asqarov

**O'ZRFA o'zbek tili, adabiyoti va folklori  
instituti tayanch-doktaranti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10780721>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Amiriy muxammaslarida qo'llangan badiiy san'atlar va ularning taxmislarda tutgan o'rni haqida bahs yuritilgan. Amiriyning ilmi bade'ida ham mahoratli ekanligini qo'llagan badiiy san'atlari misolida ochib berilgan.

**Kalit so'z va iboralar:** muxammas, taxmis, an'ana, adabiy meros, ishq, badiiy san'atlar, tahlil.

Amiriy lirikasi mazmun, g'oya, ifoda shakli nuqtayi nazaridan o'ziga xos xususiyatlarga ega o'ziga xos adabiy meros namunasidir. Shoir asarlari faqat mazmun tarafdin emas, badiiy tasvir mutanosibligi, izchilligi, ma'no bilan shaklning uyg'unligi, timsollar olamining rang-barangligi, badiiy san'atlarning qo'llanilish tamoyillari jihatidan ham noyobdir. Amiriy ijodining mazkur xususiyatlarini o'rganish asarlari mohiyatini to'liqroq anglash imkonini yaratadi.

Amiriy ilmi bade' sirlarini chuqur egallagan, mahorat bilan qo'llay olgan salohiyatli ijodkoridir. Amiriy qanday janrda yozmasin: g'azal yo muxammas yoki kichik she'riy janrlarda, teran falsafiy fikrni go'zal badiiy san'atlar bilan ziynatladi. U Mumtoz she'riy an'analarni munosib davom ettirish barobarida unga yangicha ruh bag'ishladi. Ijodkorning mahorat qirralarini kashf etish uchun u istifoda etgan badiiy san'atlarni o'zaro aloqadorlikda mufassal o'rganish lozim bo'ladi. Stebleva ta'kidlaganidek: "...g'azallarda obraz yaratish uchun shoir foydalangan badiiy tasvir vositalarining barchasini e'tiborga olmay turib, ularning murakkab tarzda birikishidan hosil bo'lgan fakturasini (o'ziga xos xususiyatlarini) vujudga keltirgan ma'nolar aloqadorligi va ularning tovlanish rishtalarining barchasini ajratib olish mumkin emas". [5.4]

Amiriy she'riyati faqat mazmun jihatidagina emas, badiiy tasvir vositalarining xilma-xilligi va qo'llanish mahorati bilan ham alohida ajralib turadi. Ma'lumki, mumtoz she'riyatda ijodkorlar 120 dan ortiq badiiy san'at turlaridan foydalangan. Shu jumladan, Amiriy ham lirik asarlarida badiiy san'atlardan mahorat bilan istifoda etgan. Maqsud Shayxzoda hazrat Alisher Navoiy she'rlarini tahlil etar ekan, "Badiiy san'atlarni bilish she'rda mavjud bo'lgan murakkab obrazlarni anglashga yordam beradi" [3.224], deya ta'kidlagan edi.

Amiriy g'azallari singari uning muxammaslari ham badiiy san'atlar bilan ziynatlangan. Ularning har biri she'rning shakl va mazmun jihatini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Ma'shuqaning go'zalligini, malohatini tarannum etish uchun har bir shoir turli usullardan foydalangan va ular an'analar qobig'ida yaxlit yoki turkum tasvir usullariga aylanib borgan. Ma'shuqaning suratiga chizgilar tabiatdagi go'zal narsalarga qiyosan o'quvchi ko'z o'ngida nihoyatda jilolanib namoyon bo'ladi. Amiriy muxammaslarida ma'shuqaning suratini tasvirlashda tajohuli orif san'atidan keng foydalaniladi. Atoulloh Husayniyning: "Tajohul ul-orif andin iboratturkim, so'zlaguvchi bir nimani bilur, ammo bir nuqta bilan o'zni bilmagandek ko'rsatur" [4.132], degan ta'rifi ushbu san'atning mohiyatini ifodalaydi.

Jumladan, quyidagi bandda mazkur san'at she'r jozibasini oshishiga xizmat qilgan:

*Kimdir ul bog' ichra arzi qaddu ruxsor aylagon,*

*O't urub gul xirmanig'a, sarvdin or aylagon,*

*Lablari guftor ila gul g'unchasin xor aylagon,*

*Orazin rangin qilib, oshiqlarin zor aylagon,*

*Xanjari mijgon ila ko'ksimni afgor aylagon. [1.416]*

Amiriy banda ma'shuqaning go'zalligi va chiroyli qomatini ta'rifini keltiradi. Lirik qahramon o'quvchiga bir savol qo'yadi, ya'ni bu bog' ichra sayr qilayotgan qaddi ruxsor kim ekan u? Gulzordagi gular ham uning go'zalligidan hijolat chekib yondi, sarv ham go'zalning qomati oldida o'zining tik qomatidan or qildi, lablari so'zlay boshlagach esa, gul g'unchalari ham xor bo'ldi, yuzining qizilligi oshiqlarin zor ayladi, xanjardek kipriklari bilan ko'ksimni ilma-teshik qilgan kim? Bu - oshiqning seviklisi! Buni bilinib turibdi, lekin har bir satrda bilib bilmaslikka olinyapti.

Mumtoz adabiyotda odatda yorning tik va mag'rur qaddi sarv daraxtiga o'xshatilishini ko'p uchratamiz. Amiriy ijodida esa, hatto yorning oldida sarv ham o'z qomatidan or qilib qolmoqda. Birgina "Yor go'zallikda tengsiz" degan fikrni dalillash uchun tashxis (o't urub gul xirmanig'a, sarvdin or aylagon, gul g'unchasin xor aylagon), tanosub (bog', sarv, gul, gul g'unchasi) san'atlaridan ham mahorat bilan foydalanadi. Badiiyatning mukammal namunasini yaratadi. Shoirning ushbu san'at mahorat bilan qo'llangan quyidagi bayti ana shu ta'rifga har jihatdan muvofiqdir:

*Gulshani ruxsorida ul chashmi oh ularmidur?*

*Javri ko'p-u mehri oz bebok badxo'larmidur?*

*Xuni nohaq qilg'uchi ikki jafajo'larmidur?*

*Go'shai abro'larinda chashmi jodularmidur?*

*Yo'qsa, kirmish yoya tirandoz hindularmidur?[1.407]*

Amiriy Fuzuliy g'azalini mukammal tarzda to'ldira olgan. Tanlagan qofiyalar ham ohangdosh ham musiqiy. Amiriy muxammasning ushbu bandida yor ko'zlari haqida gapirar ekan, yorning go'zal yuzidagi ko'zlari ohumikan, deya savol qo'yadi. Lekin buni bila turib, savol alomati orqali o'zini bilmaslikka soladi. Ushbu san'atni qo'llashdagi ana shu xususiyatni adabiyotshunos Anvar Hojiahmedov quyidagicha ifodalaydi: "Tajohuli orifona qo'llangan baytlarda ko'pincha mahbuba qiyofasi qiyosiy holda tasvirlanadi, bir yoki bir necha narsaga o'xshatiladi, lekin uzil-kesil fikr bildirilmaydi. Shoirning bilib bilmaslikka solishi shartli bo'lib, asl maqsad ta'rif yoki tavsifdan, yor qiyofasini mubolag'ali tarzda gavdalantirishdan iborat bo'ladi". [5.8]

Mumtoz adabiyotda bu tasvir ko'p ishlatilgan. Amiriy ko'zni ta'riflashda ohuga, jabri ko'p, mehri oz yomonga, qonni nohaq to'kkuvchi jafokashga o'xshatadi. Fuzuliy esa qoshlar qatidan maskan tutgan ko'zlarni joduga, yoki hindularga, aniqrog'i, yoyandoz, tirandoz, usta mergan hindularga o'xshatgan. Bu o'rinda qoshlar yoyga qiyos qilinadi.

Adabiyotshunos Iqboloy Adizovanning fikricha: "Tajohuli orif san'ati she'rda faqat tashqi ziynatlash vazifasini bajaribgina qolmaydi. Balki qisqa hajmda keng, chuqur va sirli ma'nolarni yetkazish ko'lamiga ham ega. U matn ortida yashirin, ko'pqatlamli mazmunni sirlar sandiqchasi kabi o'z qobig'ida saqlaydi". [2.230] Amiriy muxammasidan olingan yuqoridagi baytlarda ayni xususiyat kuzatiladi. Shoir ijod qilganda aynan shu san'atdan foydalanaman deb o'ylamaydi, ammo Amiriy o'z yorining jabr va azoblarini, sitamlarini sababchisi ekanligini yashirish orqali bizga ma'shuqasini yaxshi ko'rsatishni maqsad qilgan deb o'ylaymiz. Bu san'at shoir ijodida ko'plab uchraydi.

Muxammaslarda foydalanilgan san'atlar bandlarning g'oyaviy va badiiy qimmatini oshirish bilan birga ijodkor o'z oldiga qo'ygan maqsadini o'quvchiga yetkazishda foydalanilgan. Amiriy qo'llagan har bir badiiy san'at o'z o'rnida va unumli foydalanganligini ko'rishimiz mumkin.

## References:

1. Amiriy. Devon. I. O'zbekcha she'rlar. -Toshkent: Tamaddun, 2017
2. Adizova I. Uvaysiy she'riyatida poetik tafakkurning yangilanishi. Monografiya. -Toshkent: Muharrir, 2020
3. Shayxzoda M. Ustodning san'atxonasida. /Asarlar. VI tomlik IV tom. –Toshkent: Adabiyot va san'at, 1972
4. Husayniy Atulloh. Badoyi'u-s-sanoyi'. –Toshkent: Adabiyot va san'at, 1981
5. Hojiaxmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi. – Toshkent: Sharq, 2001
6. Stebleva I. Semantika gazeley Babura. – Moskva: Nauka, 1982
7. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға (нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи профессор А. Ҳайитметов) – Тошкент: "Ҳазина", 1996.
8. Шарқ мумтоз поэтикаси (Ҳамидулла Болтабоев талқинида) \Абдурахмон Жомий. Рисолаи қофия. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 302.
9. Dilmurod Asqarov. Mukhammas form in the lyrics of Uvaysi. International journal of research in commerce, it, engineering and social sciences ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876. 5-9.
10. Askarov D. IN PARTICULAR OF AMIRY'S COMPOSITION OF NAVA'I'S GHAZAL. –2022.
11. Dilmurod Asqarov AMIRIYNING NAVOIYGA MUXAMMASI // Academic research in educational sciences. 2023. NoConference Proceedings 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/amiriyning-navoiyga-muxammasi> (дата обращения: 08.04.2023).
12. Dilmurod Askarov. (2022). IN PARTICULAR OF AMIRY'S COMPOSITION OF NAVA'I'S GHAZAL. *European Scholar Journal*, 3(12), 34-36. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/3040>
13. Asqarov D. et al. TIL-INSONIYATGA BERILGAN BUYUK NE'MAT //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2023. – Т. 3. – №. 36. – С. 235-240.
14. Asqarov D. AMIRIYNING NAVOIYGA MUXAMMASI //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 4. – №. Conference Proceedings 1. – С. 101-105.
15. Аскаров Д. Uvaysiy lirikasida muxammas shakli //Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 27-31.
16. Asqarov, D. (2024). AMIRIY MUXAMMASLARIDA QOFIYA. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 2(18), 39-42.
17. Asqarov, D. (2024). MUKHAMMAS IN THE LYRICS OF THE RULING POETS. *American Journal of Philological Sciences*, 4(02), 46-52.